“PODKAST” - YANGICHA DARS O‘TISH METODI.

Mavlyanov Muminjon Akramovich, Guliston Davlat pedagogika instituti “Aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: muminjonmavlyan@gmail.com
Mamatov Jo‘rabek Saydullayevich, Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi
e-mail: jurabekmamatov2525@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’limda podkastlardan foydalanish g‘oyasi va uning talaba-yoshlar uchun qanday imkoniyatlar yaratishi muhokama qilinadi. Xususan, “Sun’iy intellekt ta’limda: O‘qituvchi yoki robot?” mavzusi misolida darsning podkast shaklida tashkil etilishi, rollarga bo‘lingan guruhlar ishtiroki, talabalarning savol-javob asosidagi tahliliy yondashuvi va suhbat orqali bilimlarni chuqurlashtirish jarayoni yoritiladi. Shuningdek zamonaviy dars strukturasi tashkil etishda raqamli texnologiyalarni to‘la qonli foydalanish istiqbollari haqida so‘z boradi. Bugungi kunda zamonaviy dars mashg‘ulotlarini tashkil etish orqali talaba va o‘quvchilarni darslarda ishtirok etish faolligini oshiribgina qolmay balkim ularni faolligini yanada oshirishga hizmat qiladi. Maqola yozish jarayonida ko‘plab xorijiy adabiyat va maqolalar tahlil qilindi. Tahlil jaroyonida shunga amin bo‘lindiki, Podkast darslar bugungi kunda yangi metod bo‘lib, maqola davomida uning yutuqlari va kamchiliklari taxlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: podkast darsi, sun’iy intellekt, ta’limda texnologiya, tahlil, kreativ yondashuv, o‘quvchi ishtiroki, loyiha, individual, transkriptlar, PR, Rollarni aniqlash, motivatsiya;

«ПОДКАСТ»- НОВЫЙ МЕТОД ПРЕПОДАВАНИЯ УРОКА.

Аннотация. В данной статье рассматривается идея использования подкастов в современном образовании и какие возможности она создает для учащихся. В частности, на примере темы «Искусственный интеллект в образовании: учитель или робот?» освещается организация урока в форме подкаста, участие ролевых групп, аналитический подход учащихся на основе вопросов и ответов, процесс углубления знаний через беседу. Также рассматриваются перспективы полноценного использования цифровых технологий в организации современной структуры урока. Сегодня организация современных уроков не только повышает активность учащихся и воспитанников в участии в уроках, но и служит дальнейшему повышению их активности. В процессе написания статьи было проанализировано много зарубежной литературы и статей. В ходе анализа был сделан вывод, что уроки подкастов являются новым методом на сегодняшний день, и на протяжении всей статьи анализируются его преимущества и недостатки.

Ключевые слова: урок подкаста, искусственный интеллект, технологии в образовании, анализ, творческий подход, участие учащихся, проект, личность, стенограммы, PR, Определение роли, мотивация;

“PODCAST” - A NEW METHOD OF TEACHING A LESSON.

Abstract. This article discusses the idea of using podcasts in modern education and what opportunities it creates for students. In particular, on the example of the topic “Artificial Intelligence in Education: Teacher or Robot?”, the organization of a lesson in the form of a podcast, the participation of role-playing groups, the analytical approach of students based on questions and answers, and the process of deepening knowledge through conversation are highlighted. It also discusses the prospects for the full use of digital technologies in organizing a modern lesson structure. Today, organizing modern lessons not only increases the activity of students and pupils in participating in lessons, but also serves to further increase their activity. In the process of writing the article, a lot of foreign literature and articles were analyzed. During the analysis, it was concluded that Podcast lessons are a new method today, and its advantages and disadvantages are analyzed throughout the article.

Keywords: podcast lesson, artificial intelligence, technology in education, analysis, creative approach, student participation, project, individual, transcripts, PR, Role definition, motivation;

Kirish. An’anaviy dars formatlari tobora o‘zgarib bormoqda. Zamon bilan hamnafas bo‘lishni istagan o‘qituvchilar ta’limda turli yangiliklarni sinab ko‘rmoqda. Shulardan biri – podkast darslari**.** Bu formatda o‘qituvchi, talabalar, texnik guruh va hatto tinglovchilarning o‘zi ham dars ishtirokchisiga aylanadi. Podkast darsning maqsadi – talabaning mavzuni mustaqil o‘rganishi, muhokama qilishi, savollar berishi va xulosalar chiqarishi orqali bilimni mustahkamlashdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Asosan ma’ruzalarga tayanadigan an’anaviy o‘qitish usullari va yodlash talabalarni jalb qilishda yoki yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda passiv va samarasizligi uchun uzoq vaqtdan beri tanqid qilinmoqda. Ta’limning jadal rivojlanayotgan manzarasida an’anaviy o‘qitish usullari tobora ko‘proq innovatsion va interaktiv ta’lim yondashuvlari bilan to‘ldirilmoqda. Professional dunyoda hamkorlik va samarali muloqot muhim ko‘nikmalardir. Interfaol ta’lim muhiti talabalarga birgalikda ishlash, fikr almashish va muammolarni birgalikda hal qilish imkoniyatini beradi. Guruh loyihalari, tengdoshlarni baholash yoki virtual jamoaviy ish orqali bo‘ladimi, bu yondashuv talabalarni jamoaga yo‘naltirilgan sharoitlarda samarali ishlashga tayyorlaydi, bu ularning kelajakdagi martabalarining muhim jihati hisoblanadi. Ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivasiyasini) oshirishga ko‘maklashish imkoniyatlariga ko‘ra, shuningdek, har xil turdagi multimediali o‘quv axborotlarining uyg‘unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga, moslashuvchanlik sifatlariga ko‘ra multimedia foydali va mahsuldor ta’lim texnologiyasi hisoblanadi.

Podkast o‘zi nima? Padokastlar seriyasida odatda ma’lum bir mavzu yoki joriy voqea haqida munozarada qatnashadigan bir yoki bir nechta takrorlanuvchi xostlar mavjud. Podkastdagi munozara va kontent puxta skriptdan tortib toki to‘liq improvizatsiyagacha, badiiy yoki ilmiy tadqiqotlardan tortib, hayotiy jurnalistikagacha bo‘lgan mavzular haqida ham bo‘lishi mumkin. Ko‘pgina Padokast havolalar va shou qaydlari, mehmonlarning tarjimai hollari, transkriptlari, qo‘shimcha manbalar, sharhlar va vaqti-vaqti bilan shou mazmunini muhokama qilishga bag‘ishlangan jamoat forumi bilan bog‘langan vebsaytlarni taqdim etadi. Bugungi kunda zamonaviy tendensiyalarni dars mashg‘ulotlariga jalb qilish va natijaga erishish muhum ahamiyat kasb etmoqda.

Ta‘limda padkast va u qanday ishlaydi?

Podkastlar – bu internet orqali eshitiladigan audio yoki video materiallar bo‘lib, ular odatda turli mavzularda maxsus rejada tayyorlanadi. O‘quvchilar uchun podkastlar nafaqat o‘qitish jarayonida foydalidir, balki ular o‘rganish uslubi sifatida

ham qiziqarli va samarali bo‘lishi mumkin. Podkastlar yordamida o‘quvchilar o‘z vaqtlarini samarali tashkil etishlari, har doim va har joyda bilim olishlari mumkin.

Zamonaviy ta’limda O‘qituvchining roli o‘zgarmoqda:

Avvallari o‘qituvchi darsda faqat ma’lumot beruvchi bo‘lsa, endilikda u – yo‘lboshchi, qiziqtiruvchi, va texnologiyalarni to‘g‘ri yo‘naltiruvchi shaxsga aylangan. Aynan podkast darslari orqali o‘qituvchi o‘quvchining kundalik hayotiga tegishli, foydali bilimlar beradi. Zamonaviy o‘qituvchi o‘quvchilarda kreativ fikrlash va tanqidiy yondashuvni rivojlantirishi zarur. U o‘quvchilarni yangi g‘oyalarni yaratishga, murakkab vaziyatlarni hal qilishga, texnologiyalarni kreativ tarzda qo‘llashga o‘rgatadi. Darsda o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlariga imkon yaratadi. Zamonaviy o‘qituvchining o‘rni texnologiyalarning qo‘llanilishida muhim rol o‘ynaydi. U yangi texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga kiritishda faol ishtirok etadi. Masalan, sun’iy intellekt, raqamli vositalar, onlayn resurslar, vizual platformalar va interaktiv dasturlar yordamida o‘quvchilarni o‘rganish jarayoniga jalb qiladi. Bunda o‘qituvchi yangi texnologiyalarni qanday va qachon ishlatishni yaxshi bilishi kerak. Shuningdek zamonaviy o‘qituvchining darsdagi o‘rni ancha o‘zgarib bormoqda. Bugungi kunda o‘qituvchilar nafaqat bilim manbai, balki o‘quvchilarning fikrlashini rag‘batlantiruvchi, mustaqil ishlashga undovchi va yangi texnologiyalarni faol qo‘llaydigan mentorlar sifatida faoliyat yuritmoqdalar. Biz taklif etayotgan yangicha format dars yaniy “Podkast” dars metodi afzalliklari haqida takidlab o‘tsak.

Jonli va tabiiy muloqat muhiti yaratiladi:

Talabalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etadilar.

“Ramiy suhbat” bo‘lmagani uchun talabalar ko‘proq muloqatga kirishadi va o‘zlarini qulay his qilishadi.

Podkast dars metodini qo‘llash strukturasi qanday ko‘rinishda bo‘ladi. Dars mashg‘ulotlari guruhlarga bo‘lingan holda tashkil etiladi bu yerda guruhlar quyidagi usulda va tarkibda bo‘linadi:

1-guruh: (Asosiy guruh) 1 o‘qituvchi va 4-5 talabadan iborat. O‘qituvchini vazifalari: Dars mavzusini ochib berish, va maqsadni tushuntirish, Asosiy ilmiy tushunchalarni to‘ldirib, to‘g‘irlab borish va dars so‘ngida yakuniy xulosani chiqarish. Kichik guruhning boshqa a’zolari Mavzuga tayyorgarlik ko‘rib, muayyan nuqtai nazarni tanlab olish. O‘z fikrini asosli, muloqotga ochiq va erkin tarzda bayon etish. Muhokama davomida jonli, qiziqarli, hayotiy misollar bilan mavzuni boyitish. Bu guruh mavzuni suhbat asosida yoritiladi suhbat asosida matn, taqdimot va video roliklarini demonstratsiya qilishlari mumkin.

2-guruh: Boshlovchi (Moderator) – 1 nafar talabadan iborat bo‘lib darsni ochib berish, mavzuni qisqacha tanishtirish, bahs munozara va darsdagi jarayonlarni kuzatib borish.

3-guruh: Texnik guruh 2 talabadan iborat bo‘ladi. Ularning asosiy vazifasi podkast darsni texnik jixatlari, darsni to‘g‘ridan to‘gri uzatish va boshqa texnik jixatlarga javob beradi.

4-guruh: PR (Ommaviy axborot) 2-3 talabadan iborat bo‘lib asosiy vazifasi dars yakunida muhim fikrlarni ommaviy axborot uchun tayyorlaydi. Ijtimoiy tarmoqlar yoki oliy ta’lim muassasi saytida tarqatish uchun qisqa matn va vizual materiallar tayyorlash bilan shug‘ullanadi.

5-guruh: Kuzatuvchilar: Qolgan talabalardan tashkil topgan guruh bo‘lib ular podkastning asosiy guruhiga savollar va takliflar berish bilan shug‘ullanadi.

Keling “Podkast” darsni tashkil etish strukturasini bir misol tariqasida ko‘rib chiqamiz:

Mavzu: Ta’limda suniiy intelekt

Mavzuga qo‘yilgan asosiy savol: Suniiy intelekt ta’limda: O‘qituvchi yoki robot?

Format: Podkast uslubidagi dars.

Davomiyligi: 80 daqiqa.

1. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi (Darsdan oldin)

(o‘qituvchi va talabalar tomonidan amalga oshiriladi). O‘qituvchi mavzuni e’lon qiladi va rollarni taqsimlaydi:

Podkast asosiy guruhi: o‘qituvchi + 3-4 nafar talaba.

Tahlilchilar guruhi: 3-4 nafar.

PR guruhi: 2-3 nafar.

Tinglovchilar: qolgan talabalar.

Har bir guruh tayyorgarlik ko‘radi: ma’lumot yig‘adi, savol va fikrlar tayyorlaydi.

2. Darsni ochish (5-10 daqiqa)

O‘qituvchi darsni ochadi: mavzu, maqsad, guruhlar va faoliyat turlari bilan tanishtiradi.

Moderator (boshlovchi talaba) so‘zga chiqadi:

Dars mavzusini e’lon qiladi (masalan: “Sun’iy intellekt ta’limda: o‘qituvchi yoki robot?”).

Ishtirokchilarni tanishtiradi.

Muqaddima savollarini beradi: “AI ta’limda yordam beradimi yoki o‘rnini egallaydimi?”

3. Podkast muhokamasi (30-40 daqiqa)

Asosiy suhbat boshlanadi:

Har bir ishtirokchi o‘z fikrini bayon qiladi (3-4 daqiqa davomida).

O‘qituvchi doimiy ishtirokchi sifatida fikrlarni to‘ldirib boradi yoki savollar bilan yo‘naltiradi.

Bahsli fikrlar, dalillar, misollar bilan almashinuv bo‘ladi.

Moderator muloqotni boshqaradi va navbat bilan so‘z beradi.

4. Auditoriya savollari (15-20 daqiqa)

Tinglovchilar guruhi savollar beradi.

Tahlilchilar guruhi fikr bildiradi yoki qarama-qarshi nuqtai nazar bildiradi.

O‘qituvchi umumlashtiruvchi savollar orqali muhokamani chuqurlashtiradi. Moderator muhokama dinamikasini saqlab turadi.

5. Xulosa va yakuniy fikrlar (10-15 daqiqa)

Har bir ishtirokchi yakuniy fikr bildiradi: “Men qanday xulosaga keldim?”

PR guruhi asosiy fikrlar va iqtiboslarni o‘qib eslatadi.

O‘qituvchi yakuniy tahlil va baho beradi:

Darsda nimalarga erishildi.

6. Uyga vazifa va yakuniy topshiriq (5 daqiqa)

Tahlilchilar guruhi uchun: darsda ko‘tarilgan asosiy savollar bo‘yicha tahliliy maqola tayyorlash. PR guruhi uchun: darsning audio/video ko‘rinishini tayyorlash, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish (agar tegishli bo‘lsa). Boshqa talabalar uchun: “Agar AI bo‘lmasa, ta’lim qanday bo‘lardi?” mavzusida prezentatsiya.

Podkast uslubidagi darsning afzalliklari va kamchiliklari. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga an’anaviy dars shakllari o‘zgarib, interaktiv va kommunikativ yondashuvlar avj olmoqda. Shulardan biri – podkast uslubidagi dars, ya’ni muhokama markazida turuvchi kichik guruh (o‘qituvchi + 3–4 nafar talaba) orqali dars mazmunini ochish va butun sinfni ushbu jarayonga jalb qilishdir. Ushbu uslub quyidagi afzallik va kamchiliklarga ega:

Afzalliklari:

O‘quvchilar faolligi oshadi.

- Har bir ishtirokchi o‘z rolini bajarishi kerakligi sababli darsga puxta tayyorgarlik ko‘radi.

- Tinglovchilar ham savol berish, fikr bildirish orqali faol ishtirok etadi.

Muloqot va tanqidiy fikrlash rivojlanadi:

- Tahlilchilar va podkast ishtirokchilari o‘z fikrini asosli bayon qilishga o‘rganadi.

- Qarama-qarshi fikrlarni eshitish orqali o‘quvchilar tanqidiy fikrlashni mashq qiladi.

Ijodiy yondashuv va erkin ifoda:

- O‘quvchilar oddiy javob berish emas, balki suhbat qurish, fikr yuritish orqali o‘z dunyoqarashini ochib beradi.

- PR guruhi esa matn, media va dizayn ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Kamchiliklari:

Darsni tayyorlash ko‘proq vaqt va mehnat talab qiladi:

- Rollarni aniqlash, guruhlarni shakllantirish, har bir ishtirokchiga topshiriq berish o‘qituvchidan ko‘proq tayyorgarlikni talab qiladi.

Hamma talabalar teng darajada ishtirok etmasligi mumkin:

Ba’zi o‘quvchilar passiv qolib ketishi yoki uyalib, o‘z fikrini ochiq aytolmasligi mumkin.

Baholashda subyektivlik xavfi:

- Har bir rol turli xil faoliyatni o‘z ichiga olgani uchun baholash mezonlarini aniq belgilash talab etiladi. Aks holda, adolatsizlik yuzaga kelishi mumkin.

Texnik yoki metodik nosozliklar samaradorlikka ta’sir qilishi mumkin:

Xulosa. Umuman olganda, podkast uslubidagi dars – bu zamonaviy, o‘quvchi faolligiga asoslangan, muloqot va mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi kuchli metod hisoblanadi. Unga puxta tayyorgarlik ko‘rilsa, an’anaviy dars shakllariga qaraganda ancha samarali va esda qolarli bo‘lishi mumkin. Kelajakda bunday yondashuvlar yordamida o‘quvchilar nafaqat bilim, balki hayotda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ham shakllantiradi. Yuqoridagi kamchiliklarniham bevosita bartaraf etish mukin. Bu uslub o‘qituvchining doimiy leksiya o‘qishidan voz kechib, o‘quvchini o‘qitish markaziga olib chiqadi. Bu esa ta’lim jarayonida faol ishtirok, mustaqil fikrlash va tashabbus ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Suhbat, fikr bildirish, auditoriyaga murojaat qilish – bular barchasi kelajakda oliy ta’limda, ish joyida yoki ijtimoiy faoliyatda muhim bo‘lgan ko‘nikmalardir. Har bir guruh o‘ziga xos vazifani bajarishi sababli, talabalar ichki rag‘bat bilan harakat qilishga o‘rganadi. Masalan, tahlilchilar tanqidiy tahlilni, PR guruhi esa media savodxonlikni mashq qiladi. O‘qituvchi bu darsda notiq emas, balki “yo‘naltiruvchi mentor” rolida bo‘ladi. Bu rolni bajarish uchun pedagogdan ilg‘or metodik va kommunikativ ko‘nikmalar talab etiladi. Eng muhim jihat — reja, rol taqsimoti, savol va mavzularning aniqligi. Agar bu jihatlar aniq bo‘lsa, dars kuchli chiqadi. Aks holda, muhokama tartibsiz va mavzudan chetlashgan bo‘lishi mumkin. Ushbu metod bir vaqtning o‘zida prezentatsiya qilish, yozma tahlil, tinglab tushunish, jamoada ishlash, texnik vositalardan foydalanish kabi ko‘p qirrali ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tarmizi R., & Azizan S. N. Podcast-based learning: A review on its potential use for higher education. International Journal of Emerging Technologies in Learning (iJET), 15(13), 2020. – B. 182-189.

2. Abdufatayev S. A., & To‘ychiyev A. A. Talabalarda ijodkorlik qobilyatini rivojlantirishda evristik faoliyatni texnologiyalashtirish. Scientific progress, 1(4), 2021. – B. 156-160.

3. Hasan M. M., & Hoon T. B. Podcast applications in language learning: A review of recent studies. English language teaching, 6(2), 2013. – B. 128-135.

4. Dzhumoboeva Y. E., Niyozov M. B., Saidboev B. J., & Kamilov M. A. Problems of teaching computer science and information technology in universities. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(5), 2020. – B. 245-250.

5. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
6. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Longman, 2007.
7. Ketonen L., & Nieminen J. H. Supporting student teachers' reflection through assessment: The case of reflective podcasts. Teaching and Teacher Education, 2023.
8. Ismoilova Z., & Xatamjonova A. Blended learning (aralash ta'lim metodlari). Education and research in the era of digital transformation, 1(1), 2025.
– B. 2005-2010.